



## O'ZBEKISTONDA MUSIQA TA'LIMI TARAQQIYOTI MILLIY AN'ANALAR KESIMIDA

**Muminov Azizjon Isroilovich**

*Samarqand Ixtisoslashtirilgan san'at maktabi oily toifali o'qituvchisi, "Musiq nazariyasi" kafedrasini mudiri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda musiqa ta'limi, taraqqiyoti va tadqiqotlari yuzasidan qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Bundan tashqari uning yaqin o'tmishi va bugungi ahvoli haqida ayrim fikrlar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, an'ana, san'at, konservatoriya, shashmaqom.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish, farzandlarimiz musiqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Istiqbol yillarida milliy ma'naviy merosga bo'lgan yuksak e'tibor natijasi o'laroq yurtimizda mazkur jabhada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, asriy qadryatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning o'tmish taqdirini idroklash, tarixini chuqur va xolis o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda erkin ijod uchun, milliy qadryatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini va uning sermazmun hayotini haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Oliy musiqa dargohlari, musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktablar, maxsus bolalar musiqa va san'at maktablarida an'anaviy ijrochilik bo'limlarida yuzlab yoshlar musiqa san'atini chuqur o'rganishga intilib, uning sirlaridan xabardor bo'lmoqda. Ayniqsa, yoqimli musiqa insonni yangi-yangi zafarlarga ilhomlantiradi va uning ruhiyatidagi yashirin zahiralarni ishga soladi. Ko'pgina ota-onalar farzandlarining musiqa bilan shug'ullanishlari uchun sa'y-harakat qilar ekanlar, bu bilan ularning qobiliyatlari taraqqiy etishiga ko'maklashadilar. Olimlarning o'tkazgan tajribalari natijasida shu narsa aniqlanganki, musiqa bilan shug'ullangan bolalarning ruhiy olami boyiydi, aql-idrok, zakovati teranlashadi. Musiqa va san'at maktabida tahsil oladigan o'quvchilar ham oddiy maktabda ta'lim oladigan tengdoshlariga nisbatan ko'proq ijobiy hislatlarga ega ekanliklari bilan ajralib turishadi. Ular sabr-bardoshli, bosiq, diqqat-e'tiborlarini bir joyga to'play olishlari bilan boshqalardan farq qilishadi.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari Avesto yodgorligi bilan bog'lanib ketadi. Zardushgoh dastlab badiha yo'li bilan ijro etilgan qo'shiqlardir. Avestoning marosimiy qismlari (yasna), Axuramazda va boshqa ma'budlarga bag'ishlangan madhiyalar ham aslida muayyan ijro yo'llari bilan yakkaxon va ommaviy qo'shiqlardir. (3.34.b)

O'zbek xalqi uzoq musiqiy tarixiy merosga ega. Markaziy Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotida musiqaning ma'naviy-tarbiyaviy omil sifatida keng qamrovda talqin etilishi uni pedagogik ilmlar bilan bir qatorda falsafa, tarix, musiqashunoslik, axloq ilmi asoslari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilishini taqazo etadi. Musiqaning insoniyat hayotidagi badiiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyati haqida qator Sharq mutaffakirlari o'zlarining boshqa sohalarga bag'ishlangan asarlari ichida bayon qilganlar. IX-XII

asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot islom madaniyati yo'nalishida rivojlandi va taraqqiy etdi.

Ajdodlarimiz barkamol insonni voyaga yetkazishda badiiy-estetik tarbiya vositalari, jumladan, musiqa san'atining ahamiyatini chuqur anglab, yoshlarning ichki hissiy dunyosini boyitishda, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirishda musiqaning yuksak ijtimoiy jihatlariga diqqat-e'tibor bilan qarashgan. Millatning kelajagi hisoblangan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishishida, ularning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy kamoloti masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu yo'lda qator maqsadli islohatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash jarayoni jadallashishi munosabati bilan yosh avlodning ma'naviy –axloqiy tarbiyasining ahamiyati sezilarlik darajada ortib bormoqda.

Biroq bizning zamonamizgacha individual shogirt tarzida musiqa o'qitish an'anasi yetib kelgan. Bunda professional musiqachi havaskor musiqachini o'qitgan. Ko'pgina mashhur o'zbek ijrochilari o'zlarining butun bir maktablariga ega bo'lganlar., bunda tahsil ko'rganlar ustoz qaramog'ida bo'lganlar. Shuningdek, bir qancha xususiy maktablar ham bo'lib, unda mashhur musiqachilar odatda muayyan miqdorda shogirdlar o'qitganlar. Bu maktablar ma'lum darajada Italiyada XV-XVI asrlarda mavjud bo'lgan badiiy maktablarni eslatadi. (3.58.b)

Demakki, musiqa inson kamolotida ustuvor ahamiyat kasb etar ekan, ta'lim dargohlarida milliy mintalitetimiz xususan, milliy kuy-qo'shiqlarimiz tobora yoshlar ongiga singdirilib borilishi zaruriy ehtiyoj. (1.45.b)

Bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish sinfonik ijodiyoti alohida e'tiborga molik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mamirov Q. O'zbek xalq qo'shiqlari. T.2008 y.
2. Munavvarova A.K. Pedagogika-T: O'qituvchi, 1996.
3. Soipova D. Musiqa pedagogikasi. T. 2010 y.
4. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. T.2010 y.